

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**SHAMURATOV MARAT XALMURATOVICH**

**K.KARIMOVNING “OG‘ABIY” ROMANIDA TARIXIY HAQIQAT VA  
BADIY FANTAZIYA**

**10.00.12 – Qoraqalpoq adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2024**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Shamuratov Marat Xalmuratovich**

К.Каримовning “Og‘abiy” romanida tarixiy haqiqat va badiiy fantaziya..... 3

**Шамуратов Марат Халмуратович**

Историческая действительность и художественная фантазия в романе  
К.Каримова «Агабий»..... 27

**Shamuratov Marat Khalmuratovich**

Historical reality and artistic fantasy in the novel "Agabiy" by K.Karimov.... 55

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 59

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**SHAMURATOV MARAT XALMURATOVICH**

**K.KARIMOVNING “OG‘ABIY” ROMANIDA TARIXIY HAQIQAT VA  
BADIY FANTAZIYA**

**10.00.12 – Qoraqalpoq adabiyoti**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil4301 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Orazimbetov Kuanishbay Kelimbetovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Nurjanov Perdebay Erjanovich**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Kamalova Dilfuza Enuarovna**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Yetakchi tashkilot:** **Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kungi soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25, faks: (99861) 223-59-25, e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**P.A. Najimov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi  
v.b., filologiya fanlari doktori, professor

**D.B. Seytkasimov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, pedagogika fanlari doktori, dotsent

**Z.U. Bekbergenova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,  
professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida keyingi yillarda tarixiy asarlarni umumbashariy mezonlar asosida baholash tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, tarix va badiiy adabiyotning bog‘liqligi va farqini aniqlash, tarixiy va badiiy haqiqatning mezonlarini chuqur anglab, tarixiy obrazning badiiy to‘qima ekanligi, ya’ni, yozuvchi badiiy xayoli mahsuli ekanligini asoslashga qaratilgan. Tarixiy roman hamisha milliy ongning uyg‘onish va rivoji bilan uyg‘un holda kechadi, ya’ni yangicha badiiy tafakkur mahsuli o‘laroq yuzaga keladi. Milliy tarixiy romanchilikka badiiy-estetik xususiyatlarni aniqlash, adabiy-badiiy jarayon bosqichlari hamda ayrim badiiy matnlar orasidagi aloqa-tutashuvlar, munosabatlarni aniqlash, shu asosda tarixiy roman rivoji, estetik-poetik xususiyatlari, tarixiy va badiiy haqiqat orasidagi muvofiqlik va tafovutlarni oydinlashtirishda muhim vazifa bajaradi.

Dunyo adabiyotida ham tarixiy romanlar yozish va o‘quvchilarga taqdim etish dolzarbligicha qolmoqda. Ayniqsa, yozma tarixi to‘liq shakllanmagan xalqlarda tarixiy romanlarga nisbatan qiziqish zaruriyati ortmoqda. Bu kabi romanlar insonlarning o‘z tarixini bilishga qiziqishini badiiy asarlar orqali qondirish mumkin. Shunday zarurat tufayli ko‘plab xalqlar adabiyotida shu xalqlar tarixida o‘chmas iz qoldirgan tarixiy shaxslarning badiiy obrazlari yaratildi va hali-hanuz yaratilmoqda. Ayniqsa, tarixiy romanlar shaxslarning shu millat odamlariga haligacha ma’lum bo‘lmagan voqea-hodisalar ishtirokida yaratilsa, bu kabi tarixiy romanlarning badiiy xususiyatlarini belgilaydi. Insoniyat madaniy tafakkuri, ilm-fani, badiiyatning yuqori bosqichga ko‘tarilishi, inson ruhiy olamining teranlashishi, murakkablashishi, bashariyat xalqlarning bir-birlari bilan uzviy robita bog‘lashi, ya’ni globallashuvi jarayonida so‘z san’ati badiiy olamida jiddiy o‘zgarish-evrilishlarni yuzaga keltirmoqdaki, bunday xususiyatlarni tadqiq etish adabiyotshunoslikning dolzarbligini taqozo etmoqda.

Qoraqalpoq adabiyotshunosligida tarixiy romanlarni o‘rganish, ularga baho berish dasturi shakllangan. Negaki, qoraqalpoq adabiyotshunosligining o‘zi ham qoraqalpoqlarning milliy tarixining yaratilishi bilan birga paydo bo‘ldi va rivojlanib kelmoqda. Adabiyotshunoslikda tarix bilan adabiyot tarixini birgalikda o‘rganish va adabiyotning insoniyatga xizmat qilish darajasini baholash tajribasi ham bor. “Adabiyotga e’tibor – bu dastlab, xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor ekanligini, shoir A.Cho‘lpon aytganidek, adabiyot va madaniyat yashasa millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo‘q”.<sup>1</sup>

Qoraqalpoq adabiyotida T.Qayipbergenov, K.Sultanov, Sh.Seytov, K.Mambetov, A.Sadiqov, K.Karimov, X.O‘temuratova kabi yozuvchilar tomonidan bir qancha tarixiy romanlar yaratildi. Ularda VI-VII asrlardan boshlab XX asrgacha bo‘lgan davrdagi xalqimizning badiiy tarixi, Bilke Qag‘an, Kultegin,

---

<sup>1</sup> Ўзбекистан Республикасы Президенти Шавкат Мирзиёев «Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари» мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига йўллаган табриги. «Халқ сўзи» газетаси, 2018 йил, 7 август.

Ismoyil Sultan, Yusup Sultan, Ormambetbiy, Mamanbiy, Aydosbiy, Yernazar Alako‘z, Qulshibiy, Yerejebiy, Ajiniyoz, Berdaq, Hurliman obrazlari yaratilgan. Bunday tarixiy voqealar va obrazlar yozuvchining o‘z oldiga qo‘ygan badiiy vazifalariga, g‘oyasiga qarab yaratiladi. Ularni yaratish bo‘yicha har bir yozuvchining o‘z konsepsiyasi mavjud. Ana shunday konsepsiyalarni aniqlash, ularning badiiylik darajalarini o‘rganish va umumlashtirish bugungi qoraqalpoq adabiyotshunosligi oldida turgan dolzarb ilmiy muammolardan hisoblanadi.

2017-yil 17-fevraldagi PF-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-sonli “Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812-sonli “Professional ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 26-maydagi PF-6000-sonli “Madaniyat va san‘at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta‘sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda bu dissertatsiya ishi salmoqli darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Joriy dissertatsion ish Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dunyo adabiyotida badiiy asarning poetikasini o‘rganish asoslari Aristoteldan boshlab, Abu Nasr Farobiy, G.Gegel, V.G.Belinskiy kabi dunyoga mashhur olimlarning mehnatlari orqali tanish. Adabiyotshunoslik ilmida badiiy asar poetikasi juda keng qamrovli bo‘lib, rus adabiyotshunosligida V.V.Tomashevskiy, V.Jirmunskiy, V.V.Vinogradov, M.M.Baxtin, AA.Potebnya, G.V.Stepanov, G.O.Vinokur, G.P.Yakubinskiy, V.E.Xalizev, V.V.Odinov, I.V.Nesterov, G.Stepanov va h.<sup>2</sup> olimlar tomonidan

---

<sup>2</sup> Томашевский Б.В. Тераия литературы. Поэтика: - М.: Аспект Пресс, 1999; Жирмунский В. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. - Л.: 1977; Виноградов В.В. Историческая поэтика – М.: Высшая школа, 1989; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Худ. лит-ра, 1972; Он же. Проблемы поэтики и история литературы. – Саранск: Прогресс, 1973.-271 с.;Потебня А.А. Теоретическая поэтика. – М.: Высшая школа, 1990; Одинцов В.В. О языке художественной прозы. – М.: Наука, 1973; Нестеров И.В. Диалог и монолог / В кн.: Литературные жанры. Проблемы типологии и поэтики. Под ред. Л.В.Чернец – Москва: МГУ, 1982; Степанов Г.В. Язык, литература, поэтика. – М.:1983; Винокур Г.О. О языке художественной литературы. – М.: Высшая школа, 1991; Хализев В.Е. Теория литературы. - Москва: Высшая школа, 2000. Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – М.: Искусство, 1976. – С. 614; Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Писатель, 1975. – С. 407.

badiiy asar poetikasining turli xil masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

O'zbek adabiyotshunosligida badiiy asar poetikasining janr, obrazlar (shuning ichida tarixiy obrazlar), kompozitsiya, syujet kabi masalalar o'rganilgan bo'lsa,<sup>3</sup> qozoq, tatar, turkman, qirg'iz va boshqa turkiy xalqlar adabiyotshunosligida tarixiy proza poetikasiga tegishli maxsus tadqiqotlar bor.<sup>4</sup> Bu kabi masalalar jahon, turkiy va o'zbek adabiyotshunosligida o'rganilgan.<sup>5</sup>

Tarixiy romanlarning poetikasi, uning milliy adabiyotdagi o'rni bo'yicha ham bir qator ilmiy ishlar qilingan. Masalan, o'zbek adabiyotshunoslaridan D.Quronov, Q.Yo'ldosh, B.Karimov, U.Jo'raqulov, H.Haqqul, I.Mirzayev, A.Boboniyozov, U.Hamdammov va boshqalar, qozoq adabiyotshunoslaridan R.Berdibayev, M.Atimov,<sup>6</sup> Qoraqalpoq adabiyotshunoslari M.Nurmuxammedov, Q.Sultanov, M.Lomunova, J.Narimbetov, A.Qo'jiqbayev, S.Bahadirova, P.Nurjanov, H.O'temuratova, Z.Bekbergenova, J.Qaniyazova<sup>7</sup> va boshqalarning ilmiy

---

<sup>3</sup> Жўракулов. У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги НМИУ, 2015.; Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. –Тошкент: Шарқ, 2004; Ҳаққул И. Бадий сўз шукуҳи. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987. – 264; Солижонов Й. XX асрнинг 80-90 йиллар ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси.: филол. фан. докт.дис... – Т., 2002; Бобониёзов А.Ю. А.Қодирий «Ўткан кунлар» романида тасвирий воситалар ва тил бадийати: Филол.фанлари номзоди... дисс.автореф. –Тошкент, 1995. -24 б.; Давронова Ш. Адабий жараён ва ёзувчининг ижодий индивидуаллиги: Филол.фанлари номзоди... дисс.-Тошкент, 2004.-163 б; Имомова Г.М. Типик миллий характерлар яратишда бадий нутқнинг роли: Филол. фанлари номзоди... дисс. –Тошкент, 1993.- 135 б; Имомкаримова М. Ў.Ҳошимов асарларида миллий кадрятлар талқини: Филол. фанлари номзоди... дисс. –Тошкент, 2004. -150 б.; Мирзаев И. Янгича тафаккур ва ҳозирги ўзбек насрининг тараққиёт йўллари: Филол. фанлари д-ри... дисс. –Тошкент, 1991.- 354 б.; Пирназарова М. Ҳозирги ўзбек романларида услубий изланишлар (О.Мухтор, Х.Дўстмуҳаммад, У.Ҳамдам, Т.Рустам романлари мисолида): Филол. фанлари номзоди... дисс. –Тошкент, 2006. -161 б.; Раҳимов А. Ўзбек романи поэтикаси. Филол.фанлари д-ри... дисс. автореф. –Тошкент, 1993. –48 б.; Ширинов С. Образное изображение и индивидуальные стиль (по романам А.Мухтара) канд.филол. наук. – С.: 1974; Қўбаев Қ. Ўзбек киссаларида тарихий ҳақиқат ва бадий маҳорат: Филол.фанлари номз. ... дисс. Тошкент, 2006; Ҳамроев К. Ҳозирги ўзбек ҳикоясида композиция поэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. Тошкент, 2018.

<sup>4</sup> Ахметов З. Поэтика эпопеи «Путь Абая» в свете её создания. – Алматы: Наука, 1984; Есембеков Т.У. Көркем мәтін поэтикасы. – Алматы: Қазақ Университеті, 2012; Қабдолов З. Сөз өнери: Әдебиет теориясының негиздери. – Алматы. Мектеп. 1983. – Б. 297; Өшимбаев С. Талантқа тағзым. – Алматы, 2003. Нурғалиев Р. Мухтар Әўезов шығармаларының көркемдік поэтикасы. Классикалық зерттеудер. 29-том. <https://kitap.kz/book/>; Гылычдурдыев А. Роман ве усатлык. – Ашгабат: 1981; Азизова М. Мастерство Чингиза Айтматова: АКД., - Махачкала: 1974; Насибуллаева Г.Р. Хәзерге татар әдәбиятында хикәя жанры поэтикасы. Монография. Казань: Татарское республиканское издательство ХЭТЕР, 2011. – 171 с.

<sup>5</sup> Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. — Тошкент: Янги аср авлод, 2012. — 352 б.; Бируни. Индия. [www.gumer.ru](http://www.gumer.ru); Гегель Г.В.Ф. Эстетика. — Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар жамияти, 2012. — 360 б.; Уоррен.О., Уэллек Р. Теория литературы. - М.: Прогресс, 1987. -325 с.; Тамарченко Н.Д. Теория литературы. В двух томах. Учеб. пособие. 3-е изд. –М.: Академия, 2008. -512 с.; Борев Ю. Теория литературы. Энциклопедический словарь терминов. –М.: 2003. -575 с.; Фесенко Э.Я. Теория литературы. Учеб. пособие. 2-е изд. –М.: 2005. -336 с.;

<sup>6</sup> Бердибаев Р., Қазақ тарихый романы, -Алмата: «Ғылым», 1979, 91-95-б. Атымов М. Қазақ романдарының поэтикасы, -Алмата: «Ғылым», 1975,152-б.

<sup>7</sup> Нурмухаммедов М., Шығармалары, 2 томлық. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1985, том-2.; Султанов Қ., Т.Қайыпбергеновтың прозасы, - Нөкис: «Қарақалпақстан», 1985; Ломунова М., Тайна древней степи (жизнь и книги Тулепбергенова Кайыпбергенова), -Нукус, «Билим», 2007, Нарымбетов Ж., Каракалпакский роман, Ташкент, «ФАН», 1971; Қожықбаев Ә., Карақалпақ романы, Нөкис: «Қарақалпақстан», 1977; Баҳадырова С., Роман ҳам дәуир, Нөкис: «Қарақалпақстан», 1978; Нуржанов П., Сверя с народной памятью, Нукус, «Билим», 1994; Өтемуратова Х., Карақалпақ тарихый романы поэтикасы, Нөкис: «Қарақалпақстан», 1995; Бекбергенова З., Карақалпақ романларында көркем сөз поэтикасы (1980-2010-жыллар), Монография, Нөкис, Илим, 2016; Қаниязова Ж., Ш.Сейтов романларында характер жаратыў шеберлиги («Халқабат» роман-трилогиясы мысалында), фил.илим. филос. Докторы (PhD) ...дисс. Нөкис, 2017.

tadqiqotlaridagi xulosalar hozirgi prozani yanada teranroq o'rganishga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Ammo, yuqorida nomi keltirilgan ilmiy tadqiqotlarning hech birida yozuvchi K.Karimovning "Og'abiy" romanining poetikasi, unda yaratilgan tarixiy va boshqa obrazlar haqida tadqiqotlar olib borilmagan. Bu dissertatsiya XIX asr Qoraqalpoqlar tarixida alohida iz qoldirgan tarixiy shaxslar Qulshibiy, Yerejepbiy obrazlarining yaratilishi, shuningdek, shu davrda yashagan Aydosbiy, Yernazar Alako'z obrazlarini yaratish bo'yicha muallif konsepsiyasi, yozuvchi mahorati masalalarini ilmiy-nazariy tomondan maxsus tarzda o'rganishga bag'ishlanganligi bilan bundan avvalgi ilmiy ishlardan farqlanadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.**

Dissertatsiya ishi Navoiy davlat pedagogika institutining ilmiy tadqiqotlar rejasining "Turkiy xalqlar adabiyotini o'rganish va adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari", "Hozirgi filologiya fanlarining ustuvor masalalari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari dasturi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** K.Karimovning «Og'abiy» romanida tarixiy va badiiy haqiqatni uyg'inlashtirish uchun yozuvchi qo'llagan usullarni aniqlash, romanning kompozitsiyasi, syujeti, tarixiy qahramonlar va boshqa personajlar obrazlarining yaratilishidagi o'ziga xosligi, voqea-hodisalarning xarakterini anglashda peyzaj, ot va bo'ri obrazini yaratish poetikasini aniqlash va asosiy tushunchalarni, badiiy-estetik talqin qilishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

K.Karimovning «Og'abiy» romanining o'rganilish tarixiga baho berish orqali yozuvchining romanini tadqiqot bo'yicha ba'zi bir masalalarni ochib berish;

"Og'abiy" romanida Buxoro Qoraqalpoqlarining hayotining tasvirlanish darajasini romanning kompozitsiyasi, syujeti va konfliktlari masalalarini tadqiq etish orqali aniqlash;

romanda Qulshibiy, Yerejepbiy obrazlarini tasvirlashda, ularning portretlarini va xarakterini yaratish va bu obrazlarni boshqa tarixiy obrazlar bilan taqqoslash orqali o'rganish;

"Og'abiy" romanidagi boshqa obrazlarga ham taalluqli voqea-hodisalarning romanning umumiy syujetlik yo'nalishiga muvofiqligini aniqlash, ilmiy xulosa yasash;

romanda tabiat hodisalarning tasvirlanishining qahramon xarakteriga va taqdiriga ta'siri masalasini o'rganish;

romanda yaratilgan ot va bo'ri obrazlarining romandagi o'rnini aniqlash, ot obrazining boshqa turkiy xalqlar adabiyotida yaratilishi bilan taqqoslab o'rganish;

**Tadqiqotning obyekt** K.Karimovning 2013-yil "Bilim" nashriyotida chop etilgan "Og'abiy" romani hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida K.Karimovning "Og'abiy" romanida tarixiy haqiqatlik, Buxoro qoraqalpoqlari hayotining tasvirlanishi, tarixiy syujetlarda yozuvchi badiiy to'qimasining ishtiroki, tarixiy va boshqa daobrazlarning yaratilishi, hayvonatlar obrazining roman poetikasidagi o'rni masalalari olindi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiya mavzusini o‘rganish jarayonida qiyosiy-tarixiy, strukturaviy, badiiy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

K.Karimovning «Og‘abiy» romani misolida tarixiy haqiqat, tarixiy obraz va yozuvchi to‘qimalari mujassamlanishining asarda ilgari surilgan dolzarb g‘oya va personajlar tizimining ruhiy-shuriy holatini ifodalashning mohiyati ochib berilib, romanning qoraqalpoq adabiyotida muhim o‘ringa egaligi asoslangan;

tarixiy shaxslar Qulshibiy va Yerejebiy obrazlarining romanda yaratilishining badiiy-estetik tamoillari darajasi va unda yozuvchining mahorati bilan romaniy tafakkuri uyg‘unlanishi, muallif konsepsiyasi aniqlanib, makon va zamon obrazlari, ularning tarixiy haqiqatga muvofiqligi matn va tarixiy manbalarni qiyoslash asosida ochiqlangan;

“Og‘abiy” romanida g‘oyaviy butinlikni va yaxlitlikni ta‘minlashda kompozisiya, syujet, konfliktning personaj obrazini konkretlashtirish, qahramonning mavqeini ko‘rsatib berishdagi o‘rni aniqlanib, peyzaj obrazlarni yaratishda yozuvchining voqea va hodiysalarni his qila olish mahorati aniqlangan;

romanda ot obrazi, bo‘ri obrazining yaratilishi, bu obrazlarning boshqa jahon adabiyotidagi shunday obrazlar bilan tipologik o‘xshashligi va o‘ziga xosligi asoslanib, ularning roman mazmunini ta‘minlashda va tasvirlanayotgan voqeya, hodisalarga ta‘siri, unda ularning ramziy vazifani bajarish xususiyati ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

hozirgi Qoraqalpoq tarixiy romanlarining rivojlanish tendensiyalari, ularda tarixiy obrazlarning yaratilish prinsiplari asoslab berilgan;

tarixiy romanlarda zamon va makon tushunchasi, ularni yaratishdagi o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rsatilgan;

K.Karimov ijodi misolida adabiy tur va janrlar sintezi, ijodkorning bir adabiy turdan ikkinchi turga o‘tish tajribasi o‘rganilgan;

K.Karimovning “Og‘abiy” romanining yaratilish manbalari va zarurati ochib berilgan;

romanda tarixiy obrazlarni yaratishda muallif konsepsiyasi, yozma va og‘zaki manbalardan mohirona foydalanish mahorati ko‘rsatilgan;

tahlilga tortilgan matnlarning koloritini berishga munosabati, ularning qahramon obrazlarini ochib berishdagi xizmati ko‘rsatilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo‘yilgan ilmiy muammolarning aniqligi, tadqiqot predmetining qiyosiy-tarixiy, qiyosiy- tipologik, strukturaviy-badiiy tahlil metodlari yordamida o‘rganilganligi, qo‘lga kiritilgan ilmiy natijalar har tomonlama tahlil qilinganligi, xulosalarning ilmiyligi, olingan natijalarning amaliyotga tadbiq etilishi bilan tushuntiriladi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati tahlilga tortilgan adabiy-badiiy, ilmiy-nazariy manbalar, yakuniy yechimlar sifatida taqdim etilgan materiallardan tarixiy romanlarni bundan keyin ham o‘rganish borasida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta‘lim tizimidagi “Roman nazariyasi”, “Adabiyot nazariyasi”, “Hozirgi qoraqalpoq adabiyoti va adabiy

jarayon”, magistratura ta’lim yo’nalishidagi “Mustaqillik davri qoraqalpoq adabiyoti” va boshqa fanlardan darslik, o’quv qo’llanma yaratishda yordamchi materiallar sifatida va K.Karimov ijodi bo’yicha alohida seminar va maxsus kurslarda foydalanish mumkinligi bilan tushuntiriladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qoraqalpoq tarixiy romanchiligi rivojlanishining asosiy yo’nalishlarini, syujet-kompozision farqlarini va tarixiy qahramon obrazining o’ziga xosliklarini tadqiq etishning ilmiy xulosalari quyidagicha tadbiiq etilgan:

K.Karimovning «Og’abiy» romani misolida tarixiy haqiqat, tarixiy obraz va yozuvchi to’qimalari mujassamlanishining asarda ilgari surilgan dolzarb g’oya va personajlar tizimining ruhiy-shuriy holatini ifodalashning mohiyati, romanning qoraqalpoq adabiyotida alohida o’rini haqidagi ilmiy natijalaridan Qoraqalpog’iston Respublikasi yozuvchilar uyushmasi tomonidan tashkil etilgan yosh iqtidorlar seminarlarida foydalanilgan (Qoraqalpog’iston Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 26-martdagi 30-son ma’lumotnomasi). Natijada yozuvchilar uyushmasining adabiy jarayonni ilmiy-nazariy va ilmiy-metodik baholashga taalluqli faoliyatining yanada takomillashuviga erishilgan;

“Og’abiy” romanida g’oyaviy butinlikni va yaxlitlikni ta’minlashda kompozisiya, syujet, konfliktning personaj obrazini konkretlashtirish, qahramonning mavqeini ko’rsatib berishdagi o’rni, peyzaj obrazlarni yaratishda yozuvchining voqea va hodiysalarni his qila olish mahorati haqidagi xulosalari O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog’iston bo’limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan bajarilgan FA-F-1-005 “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq qilish” (2017-2020) mavzusidagi fundamental loyiha ishini amalga oshirishda foydalanilgan (O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog’iston bo’limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 26-martdagi 99/1-son ma’lumotnomasi). Natijada olingan ilmiy xulosalarning tadbiiq etilishi orqali ma’ruza matnlarining va o’quv qo’llanmalarining nazariy darajasining yaxshilanishga erishilgan;

tarixiy shaxslar Qulshibiy va Yerejepbiy obrazlarining romanda yaratilishining badiiy-estetik tamoillari darajasi va unda yozuvchining mahorati bilan romaniy tafakkuri uyg’unlanishi, muallif konsepsiyasi, makon va zamon obrazlari, ularning tarixiy haqiqatga muvofiqqligi matn va tarixiy manbalarni qiyoslash bilan olingan ilmiy xulosalardan Qoraqalpog’iston Respublikasi teleradiokompaniyasining “Ruxiqliq bostani” nomli eshittirish orqali aholiga, keng jamoatchilik vakillariga targ’ib qilishda foydalanilgan (Qoraqalpog’iston Respublikasi teleradiokompaniyasining 2023-yil 13-martdagi 05-22/126-son ma’lumotnomasi). Natijada teletomoshabinlar yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy o’zlikni namoyish etishda tarixiy romonlarning ahamiyati haqidagi ma’lumotlarga ega bo’lishgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 xalqaro va 2 respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o’tgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo’yicha 5 ta ilmiy maqola, O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan

doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, jumladan xorijiy jurnallarda 1 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya 120 betdan iborat bo‘lib, kirish, uchta asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati, o‘rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, predmeti va obykti, tadqiqot usullari belgilangan, ishning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchligi, nazariy va amaliy ahamiyati ta‘riflangan, natijalarning amaliyotda qo‘llanilishi, chop qilingan maqolalar, dissertatsiya qurilishi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Romanda Buxoro qoraqalpoqlari hayotining tasvirlanishi va tarixiy haqiqat”** deb nomlanadi. Bobning **“Og‘abiy” romanining tadqiq qilinishi**” deb nomlangan birinchi qismida **“Og‘abiy”** romanining qoraqalpoq adabiyotshunoslik ilmida tadqiq qilinish masalasi o‘rganiladi. Roman tarixiy roman bo‘lganligi bois qoraqalpoqlar tarixining rus, o‘zbek, qoraqalpoq tarixchilari tomonidan tadqiq qilinishi masalasiga ham diqqat qaratildi. Roman yuzasidan bir qator tadqiqotlar yaratilgan bo‘lib, filologiya fanlari doktori, professor Q.Jarimbetov<sup>8</sup> va filologiya fanlari doktori P.Nurjanovlar<sup>9</sup>ning ishlarini ko‘rsatish mumkin. Romanda muallifning portret yaratish mahorati haqida tadqiqotchi G‘.Allamuratovning dissertatsiyasida<sup>10</sup> ham diqqatga loyiq fikrlar aytilgan.

Q.Jarimbetov maqolasida romanda adibning badiiy tafakkur darajasini, muallifining tarixiy voqelikga obyektiv va subyektiv munosabatini aniqlashtiradi. Bu tarixiy romanni tadqiq qilishdagi eng asosiy yo‘l, usul hisoblanadi. “Roman boy tarixiy, etnografik, hayotiy, madaniy, peyzajlik materiallarga ega. Romanda shu materiallarning badiiy tahlili asosida XVIII asrning oxiri, XIX asrning boshida tarqoq holatda yurgan qoraqalpoqlarning Xiva atrofida jiplashishi beriladi. Shuningdek, XIX asrdagi Xiva xonligi bilan qoraqalpoqlarning siyosiy, iqtisodiy, hayotiy, do‘stlik rishtalari ham badiiy tasvirlangan”.<sup>11</sup> Roman keng ko‘lamli epik asar bo‘lganligi bois ham unda muallifning epik o‘ylash iste‘dodi bo‘lmasa, asar o‘zining oldiga qo‘ygan vazifasini bajara olmaydi.

Adabiyotshunos P.Nurjanov maqolasida romanning kompozitsiyasi, obrazlar tizimi haqida fikr yuritadi. Roman “Ko‘ch” va “Ota yurt” deb nomlanadigan ikkita kitobdan iborat bo‘lib, uning birinchisida Buxoro qoraqalpoqlarining ulkan bir qismini – qipchoqlarni Chimboy shahri atrofiga, Lar bo‘yiga ko‘chirib olib kelishda, ularning shu yerdagi boshqa qarindosh urug‘doshlari bilan hamjihatlikda

<sup>8</sup>Жаримбетов Қ. Лирикадан романга, «Эмиўдэрья» журн. 2015, 3-сан, 87-96-бетлар

<sup>9</sup>Нуржанов П. К.Каримовтың «Ағабий» романы ҳаққында ойлар, «Эмиўдэрья» журн. 2014, 2-сан, 106-111-бетлер

<sup>10</sup>Алламуратов Ғ.А. Хозирги қорақалпоқ романларида портрет поэтикаси (Ш.Сейтов, Қ.Матмуратов, К.Каримов романлари мисолида), ф.ф.б. фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Нукус, 2022

<sup>11</sup>Жаримбетов Қ. Лирикадан романга, «Эмиўдэрья» журн. 2015, 3-сан, 88-бет

yashab ketishida salmoqli o'rni bor Qulchibiyning ibratli ishlarini tasvirlasa, ikkinchisida to'raligi, qaysarligi, jasurligi, o'jar xulq-atvori bilan Xiva xonlari oldida va aholi o'rtasida ulkan obro'ga ega bo'lgan Yerejep Og'abiyning tarixiy shaxs sifatidagi badiiy obrazini ishonchli tarzda ochib bergan»<sup>12</sup>. Ko'rinib turganidek, har ikki tadqiqotchining ushbu romanga yondashishi, nuqtayi nazari bir-biridan farq qiladi. Ular bir-birini takrorlamasdan romanni o'rganishga, uni o'quvchilar jamoasiga tushuntirishga o'zlaricha yo'l tanlaydi.

Romanning asosiy o'zagi – romandagi tarixiy hodisalarga turtki bo'lgan tarixiy sharoitlar va tarixiy obrazlarni yaratishga bo'lgan mualliflik pozitsiya haqida ham tanqidchilarning fikrlari har xil. Masalan, Q.Jarimbetov romandagi asosiy tarixiy hodisa – Buxoro qoraqalpoqlarining bir qismining ota yurti Chimboy atroflariga ko'chib, qo'nim topishiga olib kelgan sabablarini tarixiy-ijtimoiy nuqtayi nazardan emas, subyektiv nuqtayi nazardan baholaydi deb hisoblasa, P.Nurjanov, aksincha, roman muallifining tarixiy voqealarni tasvirlashda, tarixiy obrazlarni yaratishda subyektivizmga yo'l qo'ymaydi, deb baholaydi.

Q.Jarimbetovning maqolasida roman g'oyasini ochib berish ko'proq seziladi. Tadqiqotchi romanda yaratilgan bosh qahramon Yerejep Og'abiy, Aydosbiy, Yernazar Alako'z obrazlarini yaratishdagi muallif konsepsiyasini aniqlab berishga ko'p harakat qilgan. Q.Jarimbetov Aydosbiy obrazini yaratish bo'yicha yozuvchi konsepsiyasi bilan kelishmaydi. Adibning Aydosbiy obrazini ideallashtirishga moyil ekanligini ko'rsatib beradi. Adabiyotshunoslarning ikkalasi ham roman kompozitsiyasiga e'tibor qaratgan. Albatta, bu to'g'ri yondashuv. Chunki, g'oyat katta hajmdagi epik syujetlarni, juda ko'p sondagi personajlarni asarga sig'dirish, joy-joyiga qo'yish uchun muallifdan badiiy mahorat, tajriba talab qilinadi. Biroq, ikki adabiyotchi roman kompozitsiyasi bo'yicha ikki xil qarashga ega. Masalan, Q.Jarimbetov romanning hajmi ulkan, 500 betga yaqin, shu bois ham unda romanning umumiy yo'nalishiga to'g'ri kelmaydigan voqealar, epizodlar joy olgan desa, P.Nurjanov aksincha, yozuvchi dastlab asarni roman-trilogiya qilib yaratishni niyat qilgan, so'ngra bu fikridan qaytib, roman diologiya qilib yuborgan, shu bois ham muallifning aytmoqchi bo'lgan g'oyalari, muammolari sig'may qolgan degan fikrni aytadi.

Tarixiy romanning eng asosiy badiiy xususiyatlaridan biri – unda davr koloritining mohir berilishidir. Bu narsa birinchi navbatda romanda bayon qilinadigan voqealar, hodisalarga, o'sha davrga xos etnografik materiallarning, asar leksikasining mos kelishi bilan bog'liq. Aynan shu masala professor Q.Jarimbetovning maqolasida bayon qilinadi. Tarixiy romanning tili masalasi esa alohida tadqiqni talab qiladi. Muallif romanning tili tarixiy davr ruhini, koloritini bera oladigan muallif tasvirlariga, turli leksika elementlariga boy ekanligini aytadi.

Q.Jarimbetov roman leksikasidagi kamchiliklarni ham keltirib o'tadi. Ayniqsa, romanda tarixiy va etnografik atamalarning qo'llanilishida ayrim nuqsonlarning ham mavjud ekanligini qayd qiladi.

---

<sup>12</sup> Nurжанов П. К. Каримовтың «Ағабий» романы ҳаққында ойлар, «Әмиўдәрья» журн. 2014, 2-сан, 108-бет

Ikki adabiyotshunos-tanqidchining maqolasi ham obyektiv, xolislik tamoyilida yozilgani shubha tug'dirmaydi. Mualliflar roman muallifining shaxsiy obro'siga, jamiyatda tutadigan o'rniiga e'tibor berib yanglishmagan.

Bobning ikkinchi qismi «**Romanda Buxoro qoraqalpoqlari hayotining tasvirlanishi (kompozitsion izlanishlar haqida)**» deb nomlanadi. Tarixiy roman – bu tarixning o'zi emas, balki uning badiiy tasvirlanishi. Agar muallif tarixga mahkam bog'lanib qolsa, undan chiqishga qo'rqsam yoki tortinsa tarixiy haqiqat badiiy haqiqatga aylana olmaydi. «Chunki, tarixiy materialning o'zi va uning haqiqiy tasvirlanishi badiiy asar uchun hech nima bera olmaydi. Tarixiy mavzuda badiiy asar yozish uchun ijodkor mavjud bo'lgan tarixiy materialdan yuqorilashi va bu yuqorilash o'zagi tarixdan suv ichgan ideal qanotida parvoz qilishi shart. Ma'lumki, real tarixiy voqealik yetib kelgan no'qtadan badiiy haqiqat boshlanadi.»<sup>13</sup> Shunday ekan, muallifning tarixiy voqealarga yondashish mahorati, voqea-hodisalarning ishonchli tasvirlanishi, bunda badiiy usullardan foydalanishi masalasini o'rganish muhimdir.

Yirik epik asarlarda voqea va hodisalarni o'quvchi qabul qilishi uchun samarali qilib joylashtirish uning kompozitsion tuzilishiga, yozuvchining mahoratiga bog'liq. Muallif o'z g'oyasini badiiy qilib yetkazish yo'lida umumiy voqealar yo'nalishiga mualliflik bayonlashlar, hikoyachining aytib berishi yoki personajlarning xotiralari orqali umumiy syujetga qatnashi yo'q voqea-hodisalarni, ba'zi qahramonlarning o'tmish taqdiriga bog'liq hangomalarni singdirib yuboradi. Buni adabiyotshunoslik fanida montaj deydi. «Montaj adabiy asarning tuzilishini tashkil qilish uslubidir va unda tasvirlashning bo'lib tashlanishi, uni fragmentlarga «ajratib tashlash» kuzatiladi». <sup>14</sup> K.Karimovning «Og'abiy» romanida ham shu badiiy usul qo'llanilganini ko'rish mumkin. Yozuvchi baz'an hikoyachi hangomasi, ko'pincha Qulshibiy va Bektemirning xotiralari orqali o'tmish voqealari, Buxoro qoraqalpoqlarining hayot tarzi, u yerning tabiati va xalqning urf-odatlarini, an'analari to'g'risida aytib beradi. Bular o'quvchini qiziqtirib, personajlarning taqdirini ochib berishga yordam qiladi.

Buxoro qoraqalpoqlarining hayoti Qulshibiy va Bektemirning xotiralari orqali, ayrim vaqtlarda muallifning bayonlashlari orqali tasvirlab boriladi. Voqealarni bunday qilib joylashtirish murakkab kompozitsiya hisoblanadi. Chunki, murakkab kompozitsiyada «...aksariyat syujetlik tarmoqlar, voqealar, hodisalar, kartinalar – bularning barchasi bir butunlikka birlashadi. Bu yerda gohi parallel rivojlanadigan, gohi o'zining rivojlanishini to'xtatadigan, gohida boshqasiga singib ketadigan bir nechta asosiy syujetlik tarmoqlar bo'ladi. Murakkab kompozitsiya o'ziga «qatlamlashish» ham, o'tmishga chekinishni ham – retrospeksiyaning qamtiydi».<sup>15</sup> Demak, yozuvchi tutgan bunday usul yoki kompozitsiya o'quvchiga Qizilqum sahrosida ko'chib borayotgan ko'ch voqealari bilan parallel ravishda ushbu odamlarning uzoq va yaqin o'tmishiga daxldor voqealarni ham aks qilib boradi. Bu esa romanning badiiyligini yuqorilatishga ta'sir qilgan. Adib romanda

<sup>13</sup>Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари, Ташкент, 2004, 98-99-бетлар

<sup>14</sup>Хализев В.Е. Теория литературы, Москва, «Высшая школа», 1999, 276-бет

<sup>15</sup>Целкова Л.Н. в книге Введение в литературоведение, Москва, «Издательство Юрайт», 2016, 247-стр.

tarixiy faktlar va tarixiy voqelikni qanday bo‘lgan bo‘lsa, shunday tasvirlamasdan o‘zining badiiy xayolida qayta ishlab o‘quvchiga tavsiya qiladi.

K.Karimov “Og‘abiy” roman-dilogiyasida qoraqalpoqlarning tarix sahnasidagi ma’lum bir davrini tasvirlab bera olgan. Uzoq davom etgan ko‘ch jarayoni davomida ayrim personajlarning xotiralari asarning umumiy badiiy darajasiga nuqson keltirmasligi uchun murakkab kompozitsion usulni tanlagan va ma’lum yutuqqa erishgan.

Bobning “**Romanda tarixiy syujetlarning yaratilishi**” deb nomlangan uchinchi qismida “Og‘abiy” roman-dilogiyasida tarixiy syujetlarning tasvirlanishi, ularni tuzishda muallif mahorati masalalari o‘rganiladi. Chunki, syujet – epik asarlarning eng asosiy elementi. “Syujet – ma’lum bir joyda va vaziyatlarda bir-birini almashtirib turadigan, fazo va vaqt o‘lchamida o‘zgarib turadigan adabiy asarlarda yaratiladigan personajlarning taqdirini belgilaydigan voqealar tizimi”.<sup>16</sup>

Tarixiy romanlarda syujet tarixiy voqealardan juda olislab ketmaydi va ularni qahramonlarning hayoti bilan bog‘lab beradi. Shu bilan birga tarixiy syujetlar tarixda bo‘lgan voqealarni takrorlab ham o‘tirmaydi. Chunki, “Tarixchi olimning vazifasi tarixda nima bo‘lganini aytib berish, yozuvchining niyati esa har bir tarixiy hodisaning qanday bo‘lganini ko‘rsatib yozishdir”.<sup>17</sup> Shu bilan birga badiiy asarlarda ham hayotda bo‘lgani singari qayg‘u-quvonch, yo‘qotish – topib olish kabi inson hayotida uchrab turadigan holatlar tasvirlanadi. “Romanning syujetini tashkil qiladigan elementlar sifatida yuzaga keladigan ayrim mavzular mavjud. Ular uchrashish-ayriliq, yo‘qotish-yutuqqa erishish, izlanish-topib olish, tanishlik-notanishlik”<sup>18</sup>. Ammo yozuvchining vazifasi roman syujetini tashkil qiladigan ushbu hodisalarni ishonchli qilib berishida. Birinchi kitob “Ko‘ch” deb nomlanib, undagi asosiy syujet yo‘nalishi ham ana shu bir necha oy davom qilgan Buxoro qoraqalpoqlarining ota yurti Chimboy atrofiga ko‘chib qo‘nim topish jarayoniga bog‘liq yaratiladi. Ko‘ch syujeti birinchi romanning asosiy voqealarini o‘zida jamlaydi. Unda umumiy xalq ommasi bilan birga uning ayrim vakillari bo‘lgan Qulshibiy, uning xotini Janim qiz, o‘g‘li Yerejep, choparlari Bektemir, Botabek, Qulman, uning bolalari, Arepbay, xotini Sarbika, bolasi Qayir, ularning vafodor va kuchli iti Bo‘ribosar, Ko‘kjal obrazlari bilan yaqindan tanishamiz. Adib tomonidan uzoq yo‘lga otli, eshakli, tuyali ko‘chgan ko‘chning yo‘l bo‘yi ko‘rgan qiyinchiliklari ishonchli tasvirlanadi. Jala bo‘lib quygan yomg‘irdan bepoyon dalada panalashga joy topmay sindirilgan saksovulni boshiga ko‘targan odamlarning harakatlari, tunda qo‘ylarga chopgan sahro egalari – bo‘rilarning yovuzliklari oldida noiloj qolgan odamlarning sarosimaga tushishlari, bir necha kun sahroda suvsiz qolib, chanqab holdan toygan ko‘chning quduq qazishi singari voqea-hodisalar haqiqatdan ham ta’sirli chiqqan. Umuman, birinchi kitobdagi syujetlar qatlamlariga kirgan voqealar tizimi o‘quvchini ularni diqqat bilan tezroq o‘qib chiqish istagida ushlab turadi. Voqealar rivoji, personajlarning sa’y-harakatlarining ishonchliligi uchun tanlangan konfliktlar ishonchli chiqqan.

<sup>16</sup>Хализев В.Е. Теория литературы, Москва, «Высшая школа», 1999, 214-бет

<sup>17</sup> Белинский В.Г. Письма. Собр. Сочин. В 13 томах, Москва, 1953, в 6 том, 246-бет

<sup>18</sup> Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе. Очерки по исторической поэтике. Москва, «Художественная литература», 1975, 234-407-бетлар

Ikkinchi kitob “Ota yurt” deb nomlanib, unda Qulshibiy boshlagan ko‘chning ota yurt – Chimboy atrofiga kelib ko‘chib qo‘nim topishidan keyingi voqealar bayon etiladi. Ikkinchi kitobda eng asosiy syujetlar yo‘nalishi Yerejepbiy (so‘ngra Yerejep Og‘abiy) bilan bog‘liq. Birinchi kitobda Yerejepning bolalik davri, uning ko‘ch bilan kelayotgandagi ba‘zi bir harakatlarigina ko‘rsatilgan bo‘lsa, ikkinchi kitobda Yerejep markaziy sahnaga chiqadi.

Romanning boshida prolog va oxirida epilog joylashgan. Epilogda ba‘zi bir personajlarning keyingi taqdiri haqida ma‘lumotlar berilgan. Shuningdek, kitobning oxirida muallif voqealarni ma‘lumot tarzida sanab o‘tadi va bu narsa yozuvchining dastlab tasvirlanishi kerak deb hisoblagan syujetlarni ma‘lumot sifatida aytib berayotgandek ta‘sir uyg‘otadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **«Romanda qahramon obrazlarining yaratilishi»** deb nomlanib, uning birinchi qismida Qulshibiy obrazining yaratilish masalasi o‘rganiladi. Qulshibiyning qoraqalpoqlarning bir qismini Xiva xoni qo‘l ostiga ko‘chirib olib kelishga boshchilik qilish voqeasi xalq og‘zidagi shajaralarda saqlanib qolishining o‘zi ushbu ko‘chning ahamiyatini bildiradi. Amirlan Seydin bu haqida bunday yozadi: “Mahalliy turg‘unlarning “Er tebrangandek ko‘p xalq keldi” deganiga qaraganda, bu ko‘chning izi bir necha oylar, hatto yillar bo‘yi davom etganligi va olti arisning yoyilib qo‘nim topganligi haqiqatga to‘g‘ri keladi. “Ko‘ch ko‘likli bo‘lsin” deganidek, bu ko‘ch avvalgi ko‘chlardek nochor emas, alohida tantanasi bilan kelgan, ko‘rganlarni lol qoldirgan “qarqarali ko‘ch” bo‘lgan.”<sup>19</sup> Demak, bu ishda, ya‘ni qoraqalpoqlarning ko‘chib qo‘nim topishida Qulshibiyning xizmati shubhasiz buyuk.

Bu tarixiy voqealar haqida ma‘lumotlarni Xiva xoni saroy yozuvlaridan ham topish mumkin. Biroq, yozuvchi o‘sha tarixiy voqealarni qanday bo‘lgan bo‘lsa, shunday tasvirlashni niyat qilmagan. Tarixiy ko‘chish voqealari fonida unga qatnashuvchi odamlarning taqdiri, ularning ayrimlarining o‘tmishi va bugunini tasvirlash orqali asosiy qahramonlar va personajlarning obrazini yarata olgan. Badiiy asarga qo‘yiladigan asosiy talab ham shu. “Bizga ma‘lum, roman markazida inson taqdiri turgan holda u to‘la maqsad emas, romanlik qahramon olamni badiiy tanish, dunyo to‘g‘risidagi, uning o‘sha vaqtdagi holati haqidagi birgalikdagi badiiy konsepsiyani paydo qilish va aks ettirish quroli. Shunga ko‘ra, odatda romandagi qahramon – o‘z muhitiga sig‘mayotgan, muhit bilan qarama-qarshilikga kirishgan, izlanayotgan shaxs sifatida ma‘lum bo‘ladi.»<sup>20</sup> Qulshibiy ham o‘z davrining ilg‘or, progressiv qarashdagi odamlaridan biri edi. U o‘z davriga xos bo‘lgan tartib-qoidalarni o‘zgartirishga intildi. Xalqni omon olib qolish, ularning farovon yashashi uchun o‘zini mas‘ul hisobladi.

Qulshibiy bilan Ko‘ch bepoyon sahroning bir qo‘ltig‘ida bo‘rilarning hujumiga duch bo‘lgan tongda uchrashadi. “Qulshibiy qirq besh yoshlar atrofida, uzun bo‘yli, qorachadan kelgan, qipchoqlarga xos sarig‘ sifatli, ko‘k ko‘zlari tikilib qaraganda tanangdan o‘tib ketadigan o‘tkir, harakatlari jiddiy, avval o‘ylab, o‘ylaganlarini ko‘nglidan o‘tkazib, qaysi so‘zni aytish kerakligini tanlab aytadigan,

<sup>19</sup> Сейдин Эмирлан, Уллы кошти басқарған улыс басы, Нөкис, «Avangard –baspa», 2021, 10-11-бетлер

<sup>20</sup> Қуронон Д., «Адабиёт надири» ёки Чўлпоннинг мангу саволи, Ташкент, «Zarqalam», 2006, 114-115-бетлер

xulq-atvori jaydari, tez jahl qilmaydigan odam edi”.<sup>21</sup> Bu Qulshibiyning portreti. Yozuvchi biyning detallashgan portretini (qirq besh yoshlar atrofidagi, uzun bo‘yli, qorachadan kelgan, qipchoqlarga xos sarig‘ sifatli, ko‘k ko‘zlari tikilib qaraganda tanangdan o‘tib ketadigan o‘tkir), psixologik portretini (harakatlari jiddiy, avval o‘ylab, o‘ylaganlarini ko‘nglidan o‘tkazib, qaysi so‘zni aytish kerakligini tanlab aytadigan, xulq-atvori jaydari, tez jahl qilmaydigan odam edi) ham ishonchli yarata olgan. Portretning bunday birlashgan shakli o‘quvchiga psixologik ta‘sir qiladi. Bir yurtni uzoq yo‘lga safarga olib chiqqan Qulshibiyning har bir harakati o‘quvchida ishonch uyg‘otadi.

Bundan keyin Qulshibiyning o‘ylari orqali qipchoqlarning, umuman qoraqalpoqlarning tarixiga nazar tashlanadi. Bu orqali yozuvchi qoraqalpoqlarning XVI-XVIII asrlardagi yashagan geografik joyi, ularning boshqa xalqlar bilan bo‘lgan muloqotlari, bo‘lib o‘tgan urush voqealari to‘g‘risida tarixiy haqiqatni ochib beradi. Qulshibiy tahliliy o‘ylashga mos, u o‘tgan o‘tmishdan dars olish, o‘tgandagi ba‘zi ishlarni tahlil qilish qobiliyatiga ega. “Biroq bunda biz muallifning syujet qurishdag‘i asosiy farqi – uni boshidan oxiriga subyektiv-psixologik tamoyil asosiga buysundirgani qiziqtiradi. To‘g‘ri, subyektiv-psixologik tamoyil har qanday asarda ham turlicha shakllarda: qahramonlarning xotiralari, xat, ularning ko‘rgan tushlari, og‘zaki hangoma-hikoyalari v. h. shakllarda amalga oshirila berishi mumkin”.<sup>22</sup> Taniqli adabiyotchi P.Nurjanovning tarixiy romanlarda muallifning xotiralari orqali roman syujetining yaratilishi haqidagi fikri K.Karimovning “Og‘abiy” romaniga ham tegishli. Romanda Qulshibiyning keng siyosiy qarashga ega biy ekanligi, uning O‘rinboybiy bilan suhbatida Kegeyli kanaliga ko‘prik qurish, maktab qurish, bozorni qayta ko‘rib, tartibga solish, har bir savdo joyini alohida bo‘lib berish kerak degan fikrlaridan ham ko‘rish mumkin. Amudaryodan boshlanadigan Kegeyli kanali Chimboy, Kegeyli atrofini suv bilan ta‘minlar edi. Har kim o‘zining qishlog‘ining ustidan ariq qozishni xohladi. Qulshibiy shunday vaziyatda ham yo‘l topdi. Chunki, ekin maydonlariga suv yetkazib berish xalqning ochlikka uchramasligi uchun yagona yo‘l edi.

Qulshibiy adolatni qo‘llaydigan, bu yo‘lda har qanday xavf-xatarga ham to‘g‘ri bora oladigan odam. Shu bilan birga u hozirgi tushuncha bilan aytganda demokrat. Agar odamlarning taqdiriga bog‘liq bo‘lsa o‘z davrining ayrim an‘ana-qoidalarini ham buzib yubora oladi. Masalan, qo‘ng‘irotli qozoq yigit orolli boyning qizini olib qochib kelib Qulshibiydan yordam so‘raydi. Shunda u o‘ziga keladigan xavf-xatarga qaramasdan yigit bilan qizga yordam beradi.

Qulshibiy obrazi shunday murakkabligi bilan ajralib turadi. Raqibini qo‘rqitib tashlaydigan jasurlik ham, qat‘iylik ham, suhbatdoshini dovdiratadigan chechanlik ham, to‘g‘ri so‘zlilik ham, adolat ham, mehribonlik ham, uzoqni ko‘ra biladigan siyosiy qarash ham, aqllilik ham, jiddiylik ham bo‘yiga jamlangan bu yurt rahbari shubhasiz o‘z davrining ilg‘or o‘yli siyosatchisi bo‘ldi. Muallifning romanda maqsad qilgan asosiy konsepsiyasi – XIX asrda qoraqalpoqlarning o‘z oldiga

---

<sup>21</sup> Каримов К. Ағабий, Нөкис, «Билим» 2013, 17-бет

<sup>22</sup> Нуржанов П. К. Мәмбетовтың «Түркистан» романында тарийхый қахарман образын жасаўдың өзгешелиги, //Уллы устаз ҳаққында сөз китабында, Нөкис, 2020, 163-бет

xonlik tuzish, shu orqali millatni millat sifatida saqlab qolish g'oyasini aynan, Qulshibiy obrazi orqali ochib berilishida ko'rinadi.

Bobning ikkinchi qismida Yerejep Og'abiy obrazining yaratilishi masalasi tadqiq qilinadi. Muallif bu obrazning evolyutsiyasiga alohida e'tibor bergan va ishonchli yarata olgan. Romanning prologida Og'abiyning so'nggi safarga o'tlanayotgani tasvirlanadi: Chimboy shahridan chiqib, Kegeyli ko'prigidan o'tgan bir guruh odamlar shimoliy-g'arbga tortilgan arava yo'lga tushdi. Yelkalaridagi tovutni galma-gal almashib, tez qadam toshlab, shoshilib borardi.»<sup>23</sup> Yerejep yoshligidan erkin o'sti. Shundan bo'lsa kerak, uning xarakterida qaytmas qaysarlik, jasurlik xususiyatlari yoshligidan shakllana boshladi. Adib odatda, tarixiy obrazni yaratishda tarixiy voqelikni hisobga oladi, usiz mumkin emas. Chunki, tarixiy obraz tarixda bo'lgan shaxsdan – prototipidan olisda yaratilsa o'quvchi unga ishonmaydi. Biroq, bu degani voqea-hodisalar, tarixiy qahramon tarixda qanday bo'lsa, xuddi shunday bo'lishi kerak degani emas. Yozuvchi uni qayta ishlaydi, o'z konsepsiyasiga buysundiradi. “Badiiy obraz hodisalarni, turmush haqiqatini, undan ta'sirlanishini, yaratuvchi dunyoqarashi, estetik g'oyalari orqali qayta ishlanishi natijasida yangidan yaratilishidan iborat”.<sup>24</sup> Yerejep obrazi ham yozuvchi tomonidan tarixiy Yerejep haqidagi tushunchalar, qarashlar qayta ishlanib, bizning ko'z oldimizda romandagi ko'rinishga ega bo'ladi.

Yerejepning badiiy portreti muallif tomonidan qisqa, biroq, solishtirilib beriladi: “O'spirinlikdan o'tib, mo'ylovi chiqib, to'lishib, bo'yiga kuch to'planib, voyaga yetgan Yerejepga o'xshab Chimboy shahri ham asta-sekin to'lisha berdi” (302-bet). Muallif yosh Yerejepning obrazini uning harakatida ham ko'rsatadi. To'yda ko'kmar o'yinida Yerejepning dadilligi aniq tasvirlanadi. Chunki, tarixiy qahramonlarning obrazini yaratish yozuvchidan izlanishni, belgilab olingan aniq konsepsiyani talab kiladi. Masalan, taniqli yozuvchi T.Qayipbergenov Mamanbiy, Yernazar Alako'z obrazlarini yaratishda ularning o'spirinlik davriga alohida e'tibor qaratgan. Yosh Maman aqlli, bilimli yigit sifatida G'ayipxon o'tkazgan bilim, zehn musobaqasida yengib chiqib biy bo'lgan bo'lsa, Yernazar ham aqlli, ham polvon, botir yigit bo'lib o'sib kelayotgani uning harakatlari orqali beriladi, kelajagidan umid kuttiradigan yigitlar o'rtasida Og'abiy bazmini tuzib, uni boshqaradi. Tarixiy qahramonlarning obrazlarini yaratishdagi o'ziga xoslik va o'xshashlik bizga yaqin bo'lgan turkiy xalqlar – o'zbek, qozoq, qirg'iz xalqlari adabiyotlarida ham bor. “Har xil ellarning va davrlarning adabiy qahramoni solishtirib bo'lmasdek har xil. Shu bilan birga asarning janrlilik turiga qarab personajlar bir-birini qaytalashi ham mumkin, shuningdek, personajlarning harakat qilish yo'nalishlari ahamiyatga ega”.<sup>25</sup>

Romanda urf-odat, an'ana elementlari orqali yigit-qizlarning, shu jumladan, Yerejepning ham ichki ruhiy holati, xarakteri ko'rsatib beriladi. Yerejepning sevinch sezimi ham qisqa, ammo pinhona shaklda beriladi. Yozuvchi faqat ko'z ishorasi bilanoq ushbu sezimni bera olgan: “**ko'zlariga ko'zi tushganda yigitning**

<sup>23</sup> Каримов К. Ағабий, Нөкис, «Билим», 2013, 3-бет

<sup>24</sup> Саримсоков Б., Бадийлик асослари в амеzonлари, Ташкент, 2004, 8-бет

<sup>25</sup> Хализев В.Е. Теория литературы, Москва, «Высшая школа», 1999, 161-бет

**yuragi silkinib ketgan singari bo‘ldi**”. Bu adibning badiiy tasvirlash mahoratidan dalolat beradi. Yerejepning Xivaning navkari sifatida urushga qatnashishini tasvirlashlarda urush tasviri aniq chizilgan. Yerejepning jasurligi, mardligi, dovyurakligi – yozuvchi ushbu tasvirlashlari orqali uning xarakteridagi bu xususiyatlarni ishonchli yetkazib bergan. Hozirjavoblik, kuldurgi so‘zning ustasi O‘mirbek laqqini ham yengish – Yerejepga xos xulq-atvor o‘ziga xosligining bir ko‘rinishi. Demak, unga yopishtirilgan “tentak” laqabi uning o‘jarligi, dovyurakligi uchungina berilgan emas, u mavridi kelgan joyda suhbatdoshini so‘z bilan-mot qila oladi. Yerejep obrazi voqealar borishida shakllanib boraveradi. Yerejepbiy qoraqalpoqlarning ko‘zga ko‘ringan biylarini chaqirib olib Chimboy shahrida hunarmandlar, ishlab chiqarish egalariga yerni bo‘lib berish, bozorni qayta qurish ishlarini maslahatlashib oladi va bu ishga o‘zi bevosita boshchilik qiladi. Yerejep obrazini to‘ldiradigan ikki voqelikda – bu Xivada Yernazar Alako‘z bilan uchrashishi va uning iltimosi bo‘yicha xonga gunohli bo‘lgan bir turkman yigit dorga osilganda dor arqonini kesish holatlarida yanada ishonli qilib tasvirlangan.

Bobning uchinchi qismida romandagi boshqa obrazlarning ham yaratilishi o‘rganiladi. “Og‘abiy” roman-dilogiyasi ko‘p yo‘nalishli syujetga ega, Qoraqalpoq xalqining deyarli bir asrlik tarixini qamraydigan epik asar bo‘lganligi bois unda qatnashuvchi personajlarning soni ham ko‘p. Romanda Qulshibiy, Yerejepbiy obrazlaridan tashqari personaj sifatida qatnashadigan Bektemir, Tag‘abergan, Qayir, Aydosbiy, Yernazar Alako‘z obrazlari diqqatni tortadi. Eng e‘tiborli tomoni – Aydosbiy, Yernazar Alako‘z obrazlari boshqa badiiy asarlarda ham yaratilgan. Biroq, bu obrazlar (shuningdek, Begis, Mirjiq obrazlari ham) “Og‘abiy” romanida yaratilgan mos obrazlardan tubdan farq qiladi. Demak, bu obrazlarni yaratish bo‘yicha muallif o‘zining konsepsiyasiga ega.

Romanda Aydos obrazini yaratishga alohida ahamiyat berilgan. Aydosning holat-ruhiyati ham roviy tilidan, ham Qulshibiyning tilidan bayon etiladi. Bu yozuvchining individual uslubi hisoblanadi. “Badiiy asarda portret – haqiqatni anglashning maxsus shakli va yozuvchining individual stiliga bog‘liq qahramon obrazining tashqi ko‘rinishi orqali uning o‘ziga xosligi, ichki mazmunini, qalbini tasvirlovchi vositalardan biri”<sup>26</sup>

Muallif tomonidan Aydosning statik-vestial portretining yaratilishi ishonchli. Yozuvchi otda o‘tirgan Aydosning olisidan qaragandagi ko‘rinishini tasvirlaydi. Bu yerda qahramonning ichki psixologiyasiga e‘tibor berilmaydi. “Yozuvchi qahramonning psixologik kechinmalariga e‘tibor qaratmasdan, tashqi ko‘rinishida ko‘zga tashlanadigan xususiyatlarni to‘la tasvirlashi statik portretlarning asosiy tamoyillaridan hisoblanadi”.<sup>27</sup> Muallif Aydosning kiyimiga e‘tibor qaratadi. Bu to‘g‘ri, chunki, olisidan qaraganda birinchi ko‘zga tashlanadigan narsa – nazar tashlagan odamning kiygan kiyimi, agar otli bo‘lsa, uning otda qanday o‘tirgani.

<sup>26</sup> Дмитриевский Л.Н. Пейзаж и портрет, проблема определения и литературного анализа (пейзаж и портрет в творчестве З.Н.Гиппиус), Монография, Москва, 2005, 90-бет

<sup>27</sup> Алламуратов Ф. Хозирги қорақалпоқ романларида портрет поэтикаси (Ш.Сейтов, Қ.Матмуратов, К.Каримов романлари мисолида) филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Нукус, 2022, 14-бет

Yupqa va yengil cho‘loq chakmanini kiyishi, boshiga cho‘girma kiyishi, undan qolaversa otda tik o‘tirishi Aydosning kelishgan odam ekanligini ko‘rsatib turadi.

Yozuvchi romanning aksariyat joylarida ikkita personajni qatorga qo‘yib, ularning portretini yaratadi. Biroq, adib nimagadir personajlarning bo‘yiga e‘tibor qaratadi. Quyidagi misolda ham buni ko‘rishimiz mumkin: “Uzun bo‘yli, qalin tanali, yoshi qirqdan oshgan, soqol-sochiga oq aralashsa ham harakati yengil Jarqinboy bilan uzun bo‘yli, buning ustiga temirchilarga o‘xshagan yirik tanali, yigirmadan endi o‘tib yurgan yosh yigitning quchoqlashib ko‘rishgani ko‘pchilikning ko‘nglini bo‘shashtirdi”(341-bet). Bunda ayrim personajlarga mualliflik simpatiya aniq bilinib turadi. Biroq, romanda qahramonlarning kuchli, botir ekanligini ko‘rsatish uchun bir xil tasvirlash shaklidan foydalanilganini ham ko‘rish mumkin. Masalan, “*oyoq-qo‘li yo‘g‘on,baquvvat tanasi uning zo‘r kuch-qudrat egasi ekanligidan dalolat berardi*” (Aydosning portreti), “*to‘liq tanasi bilan shekmon sirtidan bilinib, o‘ynab turadigan mushaklari uning kuch egasi ekanligidan*”(Sirimbiyning portreti), “*gujiraygan yelkasiga qo‘yib quygandek qisqa bo‘yni bilan to‘qmoqdek dug‘ijim bilaklari uning qudratli kuch egasi ekanligidan dalolat berib turardi*” (Ernazar Alako‘zning portreti). Bunday qaytalanishlar bir qahramonning portreti bilan ikkinchi personajning portretini bir-biriga g‘oyat o‘xshash qilib qo‘yadi. Bularni yozuvchining portret poetikasini egallashdagi kamchiliklari sifatida baholashga asos bo‘ladi.

Romanda Bektemir va Qayir obrazlariga ko‘p o‘rin berilgan. Bu ikkita obrazga ham bog‘liq voqealar romanning asosiy syujetidan bo‘lingan holda rivojlanadi. Bektemirga bog‘liq syujetlar orqali Hakimqul, Jurin, Zulqumar obrazlari ochib beriladi. Qayirning bosqinchilar tomonidan olib ketilgan suyuqlisi Banuni qidirib, qozoq, no‘g‘oy, qalmoq dalalarini kezishiga bog‘liq voqealar romanning umumiy syujetidan uzilib qolgandek sezilgani bilan bular orqali bir nechta personajlarning obrazi ochib beriladi. Qayir ko‘p yillik ayriliqdan so‘ng eliga qaytgandan keyin Aydosbiy boshchiligidagi qo‘zg‘olonga qatnashadi. Uning tengsizlikka ko‘nmasligi, Yerejepbiyga sodiqligi bir qancha voqea-hodisaga bog‘liq tasvirlab beriladi. Shunday bo‘lsa-da Bektemir obrazi ham, Qayir obrazi ham romanda muhim o‘rin tutadi, ularsiz epik voqealar tizmasi, muallifning qoraqalpoqlarning XIX asrdagi turmush tarzini yoritib berish g‘oyasi butun bo‘lmay qolardi.

K.Karimovning “Og‘abiy” romanida bir qancha obrazlar guruhi tasvirlangan, ular epik syujetlarning butunligini, muallifning bosh g‘oyasi – XIX asr qoraqalpoq xalqining butun xalq sifatida o‘zligini saqlab qolish, har xil siyosiy kurashlar yordamida ozodlikka erishish g‘oyasini yoritib berishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Romanda tabiat va odamlar o‘rtasidagi munosabatlarning tasvirlanishi**” deb nomlanib, uning birinchi qismida **peyzaj tasvirlashlar va ularning personajlar taqdiriga ishtiroki** masalasi tadqiq qilinadi. Badiiy adabiyotda personajni tabiat bilan birga tasvirlash inson taqdirini tabiiy holda ochib berishning eng asosiy yo‘llarining biri ekanligini ko‘pgina adabiyotshunoslar ta’kidlab o‘tgan. Shunday ekan, K.Karimovning “Og‘abiy” romanida ham barcha hodisa-voqealar tabiat bilan birga tasvirlanadi. Ayniqsa, romanning birinchi kitobida ko‘chish jarayoni cheksiz sahro qo‘ynida yuz

berganlikdan tabiatni, uning qo‘ynidagi tirikchilikni, hayvonatlar dunyosini tasvirlashga alohida e‘tibor berilgan.

Voqea qayerda, qachon bo‘ldi, degan savolga peyzaj tasvirlashlar orqali javob olish mumkin. Shuningdek, tabiatni tasvirlash orqali personajlarning ko‘ngil kayfiyatini, tasvirlanayotgan voqealarning umumiy mazmunini, endi tasvirlanadigan voqealarning umumiy xarakterini sezishga bo‘ladi. Bu badiiy adabiyotning eng o‘ziga xos tomonlaridan biri ham hisoblanadi. Yozuvchi tabiat manzaralarini, unda yashovchi hayvonlar, qushlar, o‘simliklar olamini tasvirlash orqali ularga o‘zining munosabatini ham bildirib o‘tiradi.

“Inson tabiatning ajralmas bir qismi. Yozuvchi tushkunlikka tushgan bu go‘zal manzarani insonning ichki tuyg‘ularidan kelib chiqqan holda tasvirlagan. Yuz berayotgan o‘zgarishlarni personaj holatiga mos ravshda tasvirlash ham san‘at”.<sup>28</sup> Adib tasvirlagan tabiat manzaralari ham Qayirning ichki tebralishlariga, qayg‘u-hasratlariga mos keladi. Chindan ham o‘tmishi, kelib chiqishi, el-xalqi, hattoki, o‘zining ham kim ekanligini bilmaslik – inson uchun katta fojia. Endi Qayirning hayotidagi bunday keskin holatni faqat tasodifan yuz bergan keskin hodisa, voqeagina o‘zgartirishi mumkin ekanligiga o‘quvchi ham ishona boshlaydi. Yozuvchi Qayirning ushbu tragik holatdan chiqib ketish yo‘llarini izlashtirdi va tasodifan yuz bergan bir vaziyat orqali buning ilojini topadi. Uni ham aynan peyzaj tasvirlashlar orqali ko‘rsatib beradi.

Peyzaj tasvirlashning yana bir vazifasi – tasvirlanayotgan joyni ko‘rsatib berish, aniqrog‘i, uni badiiy tasvirlash. “Tong oqarib kelardi. Hali ko‘kka bosh ko‘tarmagan quyoshning nurlari, avvalambor, otli odamning tepasi bilan barobar keladigan saksovullarning uchlarini yoritib, asta-sekin atrofga yoyila boshladi. Nurlar Bektemir yotgan so‘lim uyning tutundan qoraygan **chang‘arogiga** tushdida, so‘ngra qora kigiz yopilgan qaddini aniqlashtira berdi”. (3-bet)

Bu tasvirlashlar orqali birinchi navbatda vaqt aniqlanadi (erta tong). Ikkinchidan, voqea boshalanyotgan joy badiiy tarzda tasvirlanadi. Otli odamning tepasi bilan barobar saksovullar albatta, necha yillar davomida odam oyog‘i tegmagan sahroda bo‘ladi. Demak, voqea sahroda yuz bermoqda. Ichkarida yoqilgan gulxanning tutunidan qorayib ketgan **chang‘aroq**, uning qora kigiz bilan yopilgani so‘lim uy to‘g‘risida tushunchamizni kengaytadi. Badiiy detal sifatida xizmat qiladigan bu peyzajlik tasvirlashlar personaj obrazini shakllantirishda ham xizmat qiladi. Pastroq so‘lim uyda yashaydigan uy egasi juda boy ham emas, juda kambag‘al ham emas, o‘rta hol odam. Agar boy bo‘lganida ulkan o‘tovda (masalan, Qulshibiyning o‘tovidek) yashar, juda kambag‘al bo‘lganida esa chiy **shatpada** yashardi. Yozuvchi shu peyzaj tasvirlashlar orqali bir nechta badiiy vazifani bajara olgan.

Peyzajlik tasvirlashlarning yana bir o‘zgachaligi ular yaqin vaqtda bo‘lib o‘tadigan voqeaga ishora ko‘rinishida tasvirlanadi. Masalan, ijobiy voqea yuz beradigan bo‘lsa suluv tabiat tasvirlansa, aksincha, salbiy, tragik voqealar yuz bermasdan avval atrof ham shunga mos tasvirlanadi. Bunday peyzaj tasvirlashlarni “Og‘abiy” romanida ham ko‘rish mumkin. Peyzaj tasvirining yana bir ko‘rinishi

---

<sup>28</sup> Турсунова С., Пейзажнинг бадий вазифалари, «Ўзбек тили ва адабиёти» журналі, 2011, 6-сон, 82-бет

qishloq va shaharlarning tasvirlanishi hisoblanadi. Ayniqsa, tarixiy romanlarda bu ahamiyatga ega. Chunki, bunday asarlarda qishloq va shaharlar o'sha davr holatidagi kabi tasvirlanadi. Bundan o'quvchi o'sha qishloq va shaharlar to'g'risida tegishli ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Romanda XIX asrdagi Chimboy shahri bilan yaqinroq tanishish mumkin. Shahardagi uylar, ularning joylashishi, kasb odamlarining kundalik turmushi haqida baholi ma'lumotlarni olamiz. Yozuvchi taniqli folklorshunos-etnograf olim Qalli Ayimbetovning "O'tgan kunlardan xotiralar"<sup>29</sup> kitobidan keyin Chimboy shaharini badiiy tasvirlashga erishgan. Q.Ayimbetov ham o'z ishida Chimboydagi kasb egalarini novvoylar, g'arrakchilar, chanishmay, ko'nchi, kirkirachi, mo'rachi, taroqchilar, qo'siqchilar, to'nchilar, yog'och ustasi, juvozchi<sup>30</sup> h.t.b. deb bo'lgandi.

Romanda bir shahar yoki qishloqni emas, balki butun qoraqalpoq elini umumiy yo'nalishda bo'lsa ham tasvirleydigan joylar ham bor. Ularda urug'lik-patriarxlik jamiyatda yashayotgan xalqning geografik joylashish sabablari ham ko'rsatilgan. Ularni juda balanddan ko'rib turib tasvirlagandek bu tabiat tasvirlari orqali XIX asr qoraqalpoq xalqining yashash va turmush tarzi haqida ancha to'liq ma'lumot bera oladi. Bu esa, tarixiy haqiqatning badiiy aks etishi hisoblanadi. Tabiat manzaralarini personajning portreti, uning ruhiyati bilan qator, taqqoslab tasvirlashning ham ahamiyati alohida. Chunki, tabiat negizida barcha jonzoatlarning yashaydigan makoni bo'lgani bilan u o'zining takrorlanmas go'zalligi bilan odamlarni sevintiradigan, qo'rqinchli hodisalari bilan qo'rqitadigan kuchga ham egadir. Yozuvchi personajlarning ruhiy holatini berishda tabiatning shu o'zgaruvchanligini tasvirlash orqali erisha olgan.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchi bu romanida tabiat manzaralarini har xil rakurslarda tasvirlash orqali o'zining ham tabiatga munosabatini bildirib o'tiradi. Tabiatning go'zalligidan sevinish, tabiat hodisalarini inson ruhiyati bilan bog'lash orqali insonning qachonlardir tabiat farzandi bo'la turib, keyinchalik undan ajralib qolganligini, ammo tabiat har doim insonni o'zining nazoratida ushlab tura olishini ko'rsatib bergan. Tarixiy romanlarda tabiatni tasvirlash voqeaning tarixiylikini belgilab beradigan muhim asoslarning ham biri hisoblanadi.

Bobning ikkinchi qismi "**Romanda ot obrazining o'rni**" deb nomlanadi. K.Karimov "Og'abiy" romanida bir qator tarixiy qahramonlarning obrazini ochib berish uchun qo'shimcha obrazlardan mohirlik bilan foydalanadi. Ular hayvonlar obrazlari. Bu obrazlarsiz asosiy qahramon obrazlari ham, roman syujeti ham butun bo'la olmasdi. Chunki, "Asarning qahramonlari faqat odamlargina bo'lib qolmaydi, hayvonlar ham, fantastik obrazlar ham, hattoki predmetlar ham, asar qahramoni bo'la oladi. Ularning barchasi istalgan vaziyatda muallifning ongidagi haqiqatni olib yuruvchi badiiy obrazlar bo'la oladi"<sup>31</sup> Shu bois ham dissertatsiyaning ushbu qismida romanda ko'p uchraydigan, hattoki personajlarga solishtirganda ham ko'proq o'rin beriladigan ot obrazining yaratilishi o'rganildi.

"Og'abiy" romanida ot obrazi barcha voqealarda markaziy o'rinni egallaydi. Chunki, romandagi voqea-hodisalar bo'lib o'tadigan o'sha XIX asrda otsiz hayotni

<sup>29</sup> Айымбетов Қ. Өткен күнлерден елеслер, Нөкис, «Қарақалпақстан», 1972

<sup>30</sup> Усы китап, 57-67-бетлер

<sup>31</sup> Мурзак И.И. в книге Введение в литературоведение, Москва, «Юрайт», 2016, 285-бет

tasavvur qilish qiyin. Romanning birinchi kitobida ot asosiy ulov xizmatini bajaradigan ko‘ch voqealari asosiy o‘rinni egallasa, ikkinchi kitobida ham personajlarning bir joydan ikkinchi joyga borib-kelishlari otsiz mumkin emasdi. Ikkinchidan, buxorolik qoraqalpoqlarning ota yurti Chimboy atroflariga ko‘chib qo‘nim topishining asosiy sababchisi ham ot. Demak, romandagi bosh g‘oyaning ham (tarqoq yashayotgan qoraqalpoqlarni bir markazga jamlab, alohida xalq, mamlakat bo‘lib yashash g‘oyasi), barcha voqea-hodisalarning ham sababchisi To‘riq qashqa ekan, muallifning ot obraziga alohida e‘tibor qaratgani asosli. Shuningdek, ot obrazi qoraqalpoq folklorida, boshqa turkiy xalqlarning adabiyotlarida bosh qahramonlar bilan qator tasvirlanadigan an‘anasini hisobga oladigan bo‘lsak, K.Karimovning romanida ot obrazini alohida o‘rganish ahamiyatli.

“Otlarning badiiy funksiyalari oltoy, tuva, xakas adabiyotlarida bir-biriga o‘xshash – milliy yozuvchilar o‘zlarining asarlarida otga bog‘liq barcha hodisalarni to‘la aks ettirishga harakat qiladi, uyirning chopib borayotganini, otlarning yomon qiliqlarini, ot boquvchilarning og‘ir mehnatlarini badiiylashtiradi: ot atrof-muhitni, peyzajni tasvirlashda solishtirish uchun foydalaniladi, qahramonlarning xarakterini ochib berish uchun qo‘llaniladi... Shuningdek, osmonda oq to‘da bo‘lib ko‘chib yurgan yulduzlar ham ot bilan solishtiriladi. Bunday sifatlashlar matnning badiiylilik ta’sirchanligini oshiradi, atrof-muhit kartinasining milliy o‘zgaruvchanligini paydo qilishga imkoniyat yaratadi”.<sup>32</sup>

Muallif To‘riq qashqa obrazini yaratishga alohida e‘tibor qaratadi. To‘riq qashqaning ta’rifini Kulshibiy orqali beradi. “Romanda K.Karimov ulkan biylar o‘rtasidagi tortishli hosil zotga aylangan Qulshibiyga tegishli To‘riq qashqaning suluv portretini, uning poygalardagi chopishlarini, yutuqlarini, boplagan seyislarini ixlos bilan tasvirlaydi”.<sup>33</sup> Muallif haqiqatdan ham To‘riq qashqa obrazini yaratishga, uning portretini chizib berishga ulkan ahamiyat qaratadi. Yozuvchi To‘riq qashqaning statik-somatik portretini yaratishda o‘zini ot siynasining bilimdoni ekanligini ko‘rsatadi. Rangiga yarashgan peshonasidagi qashqasi, qaychilangan qo‘sh qulog‘i, qushning qo‘sh qanotidek yelpildaydigan keng tanovi, **axalteke** bedavlaridan meros qilib olgan ingichka va uzun bo‘yni, unchalik katta bo‘lmagan boshi (To‘riq qashqaning otasi axalteke zotiga tegishli deb ko‘rsatiladi), keng o‘mrovi, uzun va niq oyoqlari, og‘ir do‘ynoqlari, uzun beli, keng **sovrisi**, ortqi sonlarining orasi **olchaq** ekanligi, tirsagidan oshmaydigan dumi – bular otning birdaniga ko‘zga tashlanib turadigan tana tuzilishi. L.V.Cheltigmashevaning ta’kidlab o‘tganidek, ot tabiat bilan taqqoslanib tasvirlanadi, muallif To‘riq qashqaning peshonasidagi qashqasini ko‘kka yulduz qanday yarashadigan bo‘lsa shunday yarashib turadi, deb keltiradi. Demak, ot obrazini yaratishda oltoy yozuvchilari bilan yaqinlikni ko‘rish mumkin. Shuningdek, otning somatik-vestial portreti ham ishonchli chizib beriladi. O‘mroviga siynamant solinib, egarning tumshug‘ining yonidagi bronza **chingaga** bekitilishi, cho‘qligi baland

<sup>32</sup>Челтыгмашева Л.В. Художественный образ коня в литературе народов саяно-алтая, журн. Филологические науки. Вопросы теории и практики, 2014, №1, стр. 204

<sup>33</sup>Жаримбетов К., Лирикадан романга (К.Каримовтың «Ағабий» романы хаққында гейпара ойлар), «Әмиўдәрья» журналы, 2015, 3-сан, 88-бет

bo'lganlikdan quyushqan darkor emasligi tasvirlanib, otning bunday alohida "kiyinishining" sabablarini ham "tushuntirib" beradi. Romanda To'riq qashqa portretining shunday yaratilishi uning chindan ham hosil zot ekanligiga, olg'ir ekanligiga ishonch uyg'otadi.

Ot obrazini yaratish, shuningdek, uning suluv portretini chizib berish turkiy xalqlar adabiyotida an'anaviy usullar hisoblanadi. Buni mashhur qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning "Rozi bo'l, Gulsari", o'zbek adibi Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom", qoraqalpoq yozuvchisi Gulaysha Yesemuratovanning "Jiyan" povestlarida ham ko'rish mumkin. Bu asarlarning barchasida ham ot asosiy o'rinni egallaydi. Olg'ir, yo'rg'a, miqli, aqlli otlar egasiga vafodor do'st, poygalarda obro' olib beradigan jonzot sifatida tasvirlanadi.

"Og'abiy" romanida To'riq qashqa obrazini yaratishga shuncha ko'p joy ajratilishining sababini Qulshibiyning o'tmishni xotiralashlaridan bilib olish mumkin: "Eh, bu dunyoning g'ovg'asi ko'p ekan-da! Bir biyadan tug'ilgan qulundan kamolga kelib, ot bo'lgan, bir To'riq qashqa qanozat otning sababidan boshlangan janjalning oxiri qon to'kishishgacha olib borib, bir aris elni xonga yomon otli qiladi, deb kim o'ylagan..." (18-bet) Demak, romanda To'riq qashqa obrazi minadigan ulov yoki poygadan obro' olib beradigan qanozat sifatidagina yaratilmaydi, balki uning undan ham ko'ra ahamiyatliroq ekanligi ko'rinib qoladi. To'riq qashqa Qulshi biy, Tag'abergan seyis, To'lesin, Yerejep obrazlarining ajralmas bir qismi, ularning obrazlarini to'liqtirib turuvchi obyektiv obraz. Qulshibiy shu otni deb Qojamiyar biyga va u orqali amirga yomon otliq bo'ladi, shu ot deb Tag'abergan seyis bilan To'lesin o'lib ketadi, Kichkina Yerejepning "O'lsam ham To'riq qashqani To'lesinga bermayman" degan so'zidan uning xarakteridagi qaysarlik belgilarining shakllanib kelayotganini ko'rish mumkin. Oxirida faqatgina bu personajlarning emas, butun qipchoq qavmining taqdiri shu otga bog'liq bo'lib qoladi.

Romanda To'riq qashqadan boshqa otlar ham tasvirlangan. Masalan, Qulshibiyning oti Sariq jurnal, Yerejepbiyning oti Qora buo'dan ot, Bektemirning oti Temirko'k, To'lesinga tegishli ot Jiyan va boshqalar. Biroq, yozuvchi bularning barchasiga ham tarif berib, portretini yasab o'tirmaydi. Har biriga egasining yoki boshqa birovning ko'zi bilan qarab obrazini yaratadi. Ularning yo'rg'a-jurnal, chopqir yoki kuchli ot ekanligiga e'tibor qaratadi.

Biz yuqorida har xil rakursda tasvirlangan otlar obrazini ko'rib o'tdik. Bundan ot obrazi, ayniqsa, tarixiy romanlarda davr koloritini berishda, tarixiy haqiqatni yaratishda alohida ahamiyatga ega ekanligi ko'rinib qoladi. Shuningdek, ot obrazi personajlarning obrazlarini shakllantirishda ham hal qiluvchi xizmat bajaradi.

Bobning uchinchi qismida romanda bo'ri obrazining tasvirlanishi masalasi o'rganiladi. Badiiy adabiyotda, ayniqsa, epik asarlarda bo'ri obrazi yaratiladi yoki umuman tabiatning eng zolim hayvonlarining biri bo'lgan bo'rilar tasvirlanadi. Buni dunyo adabiyotida ham, uning bir qismi bo'lgan turkiy adabiyotda ham uchratish mumkin. Masalan, amerikalik yozuvchi Djek Londonning "Oq nido" (Beliy Klik) povesti va "Bo'ri" hikoyasi, kanadalik yozuvchi Seton-Tompson Ernestning "Vinnipeg bo'ri" (Vinnipegskiy volk) hikoyasi, qozoq adiblari

M.Avezovning “Ko‘kserik” povesti, D.Ramazanning “Ko‘kjal” hikoyasi, qirg‘iz yozuvchisi Sh.Aytmatovning “Jon yog‘och” (Plaxa) romanlarida bo‘ri obrazi yaratilib, ularning inson bilan munosabatlari, tabiatdagi hayoti, ichki psixologiyasi qiziqarli qilib tasvirlangan. Bunday asarlarda bo‘ri inson bilan munosabatda, asar personajining obrazini to‘liqtirishga xizmat qiladi. Inson bilan bo‘rilarning qarama-qarshi kelishini tasvirlash orqali personajning jasurligi yoki qo‘rqoqligi, mehribonligi yoki zolimligi aniq ko‘rinadi. Turkiy xalqlarning qadimdan kelayotgan tushunchalari bo‘yicha bo‘ri (Ona bo‘ri) totem sifatida ham tasvirlanadi. Bunda asar qahramonlaridan biri turkiy xalqlar Ona bo‘ridan tarqaganligimiz haqida afsona aytib beradi. Bunday hangomalar ko‘pincha ko‘pni ko‘rgan qariyalar tomonidan aytiladi. Masalan, K.Karimovning “Ulug‘ dasht bo‘rilari” romanida Budinli qariya turkiy xalqlarning bo‘ridan tarqalgani haqida rivoyatni aytib beradi.<sup>34</sup>

K.Karimovning “Og‘abiy” romanida ham bo‘rilar obrazi asarning ko‘p o‘rinlarida uchraydi. Dilogiyaning “Ko‘ch” qismida bo‘rilarning ko‘chib kelayotganlarning o‘zlariga, mollariga hujumi, himoyalanishi va hujumga o‘tishi kabi voqealar qiziqarli syujetlar bilan beriladi. Romanda insonlar bilan bo‘rilarning uchrashishi tabiiy hodisa edi. Chunki, bepoyon sahroda necha oylab Ota yurtga ko‘chib kelayotgan ko‘chning shu sahroning egalari bo‘lgan bo‘rilar bilan uchrashmasligi ham mumkin emas. Adib romanda bo‘rilar obrazini yaratish yoki bo‘rilarga bog‘liq voqealarni tasvirlash orqali uchta maqsadni ilgari surgan. Birinchidan, bo‘rilar bepoyon sahroning egalari. Ular o‘zlari egalik qilayotgan hududga tashqaridan kelgan har qanday jonzot bilan uchrashadi va ular bilan kuch sinashadi. Bu ularga tabiat tomonidan berilgan instinkt. Yozuvchi ushbu voqelikni aylanib o‘ta olmagan. Ikkinchidan, bo‘ri yovvoyi yirtqichlarning ichida eng zolimi, makkori va qo‘rqmasi. Uning bilan duch kelgan har qanday jonzot, shu jumladan odam ham birinchi navbatda undan himoyalanish yo‘llarini o‘ylaydi. Ana shu jarayonda roman personajlarining obrazlari shakllanadi (qo‘rqoqligi yoki jasurligi, makkorligi yoki soddaligi v.h.). Uchinchidan, bo‘ri qancha zolim hayvon bo‘lsa ham aksariyat holatda odamga birinchi bo‘lib hujum qilmaydi. Tabiat tomonidan o‘rnatilgan “Yaxshilikga yaxshilik, yomonlikga yomonlik” qonuniyatiga ular ham rioya qiladi. Romanda ushbu haqiqat manzarasini tasvirlab berish ham nazarda tutilgan.

Romanda bo‘ri obrazi syujet va kompozitsiya yaratishda asosiy joyni egallashini shundan ko‘rish mumkin, unda voqealar, aynan bo‘rining uvullashidan boshlanadi. Bo‘rilarning uvullagan ovozi atrofda sokinlikni buzib, unda qo‘zg‘alish paydo qiladi va uyqudagilarga “turinglar” degan belgi beradi. Bu ovoz o‘quvchini ham birdaniga ogoh qilib, qandaydir keskin voqealarni o‘qishga tayyorlaydi. Demak, bo‘rilar romanning syujet va kompozitsiyasida tayanch manba xizmatini bajaradi. Shuningdek, bo‘rining o‘zi tugul ovozi ham inson va uning atrofida yuradigan barcha tirikchilik egalarida qo‘rqinch paydo qilishini ham ko‘rish mumkin: “Bo‘ri yana uvulladi. Eshitganlarning yuragini silkitib yuboradigan, o‘ziga nola, qo‘rqinch, o‘shqirish, qasos irg‘oqlarini jamlagan sirli va

---

<sup>34</sup> Каримов К. Уллы дэшт бөрилери, Нөкис, «Билим», 2014, 7-10-бетлер

yovvoyi ovoz bu safar juda yaqin joydan eshitildi”(4-bet). Bo‘rining ovozi talay janglarda jon olib, o‘zi ham shunga yaqinlashib qolgan voqealarni boshidan kechirgan botir Bektemirning ham yuragini “jiz” ettirdi, zildek boshini oldingi oyoqlarining ustiga ko‘yib milgiyotgan Bo‘ribosarni ham hushyor torttirdi, yirik tanali ko‘k qanchiqni ham “vov” ettirdi, yuraksiz, qo‘rqoq itlar esa, quyrug‘ini butining orasiga qisib, egalari yotgan chodirlar bilan ko‘rimsiz uylarni panaladi. Bu kartinalar orqali yozuvchi bo‘rining kuch-qudratini ko‘rsatuvchi dinamik portretini chizib beradi.

Romanda bo‘ri bilan odamning duch kelish voqeasi ham muallif tilidan aytiladi. Bunda bo‘rining ichki ruhiy holati, odamning bo‘ri bilan uchrashish xavfidan qo‘rqish vaziyatlari mohirona tasvirlanganini ko‘rish mumkin. Yozuvchining bo‘rining ichki intuitsiyasi, ichki psixologik holatini tasvirlashi romanning alohida joylari hisoblanadi. Milgiyotgan payonsiz sahroning egasi odamlar emas, balki hayvonlar. Ularning olamini tasvirlamay turib sahroni tasavvur qilish qiyin. Sahrodagi hayvonlarning ichida odamga qarama-qarshi keladigani ham bo‘rilar. O‘zlarini butun dunyodagi tirikchilik egalimiz deb his qiladigan odamlarga qarshi turish uchun bo‘rilarda ichki intuitsiya ham, ichki psixologik holatlar ham bo‘ladi. Bo‘rilarni ayovsiz tabiatda o‘zlarini omon saqlab yurgan ham, unda ustunlik qilishga muyassar bo‘lishi ham ularning shu o‘ziga xos tomonlari.

Romanda bo‘rilarning avlodlaridan bo‘lgan it obrazlari ham tasvirlanadi. Qayirning iti Bo‘ribosar va ko‘k qanchiq obrazlari orqali odamlarning sodiq yo‘ldoshi, ularga xavf tug‘ilganda jonlarini ham ayamasdan jangga kirisha oladigan jonzotlar tipi beriladi. Bo‘ribosarning portreti aniq chiziladi. Bo‘ribosarning portretidanoq uning bo‘rilar bilan qo‘rqmasdan jang qila olishiga ishonch paydo bo‘ladi. Biroq, romanda bo‘rilar to‘g‘risidagi voqealar bir nechta joylarda qaytalangani bilan ularning portreti yaratilmaydi. Balki, qarichdek keladigan tishi, yelka junining hurpayishi kabi belgilarigina sanab o‘tiladi. Bu badiiy haqiqatga mos keladi. Chunki, dala hayvoni bo‘ri o‘z bichimi haqida ta’sir o‘yg‘otish uchun, masalan, Bo‘ribosarga o‘xshab, odam bilan birga yo‘ldosh bo‘lmaydi, faqat bir zumda bo‘lib o‘tadigan harakatdagina uni ko‘rish mumkin.

Shunday qilib, bo‘ri obrazi roman syujetida bevosita qatnashadigan obraz. U roman personajlarining obrazlarini to‘liqtirish maqsadida ham yaratiladi. Chunki, bo‘riga qarshi kurash epizodlarida Bektemir, Arepbay, Qayir, Kulman cho‘pon va boshqa obrazlar shakllanadi. Hatto, Arepbayning taqdirining hal qilinishi bevosita bo‘rilar bilan bog‘liq kechadi. Ikkinchidan, romanda bo‘rilar hayotining berilishi bilan birga ularning ichki psixologiyasi ham ochiladi. Bo‘rilar ham odamlar kabi o‘ylay oladi, ularga tabiat tomonidan berilgan sezgirlik orqasida makrning ko‘rinishlaridan foydalanadi. Uchinchidan, bo‘rilar obrazi dala xalqlarining hayotiga bog‘liq yozilgan asarlarda uchraydi. Biz yuqorida ularning ayrimlarini keltirib o‘tdik. Demak, romanda bo‘rilar obrazi yaratilmaganida syujetdagi butunlik, tarixiy haqiqat saqlanmas ham edi.

## XULOSA

K.Karimovning “Og‘abiy” romanda qoraqalpoq xalqi tarixining muhim bosqichi tasvirlangan. Romanda Qulshibiy, Yerejepbiy singari murakkab hayot yo‘liga va siyosiy qarashlariga ega millat vakillari obrazi yaratiladi. Shuningdek, o‘sha davrda yashagan boshqa yurt rahbarlarining obrazlarini yaratish bo‘yicha yozuvchining o‘z konsepsiyasi mavjud. Biz romanni tadqiq qilib, quyidagicha xulosaga keldik.

1. K.Karimovning “Og‘abiy” roman-dilogiyasi qoraqalpoq romanchiligida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Roman to‘g‘risida taniqli adabiyotshunoslar Q.Jarimbetov va P.Nurjanovlar tanqidiy maqolalarini chop qildi va romanni XXI asr qoraqalpoq adabiyotidagi ijobiy hodisa sifatida baholadi.

2. Dissertatsiyada tanqidchi-adabiyotshunoslarning roman to‘g‘risidagi bahosiga munosabati bildirildi. Ayrim o‘rinlarda tanqidchilarning fikr-qarashlari bilan bahsga kirishildi va bu mulohazalar roman talqini misolida ochib berildi.

3. Romanda XIX asr qoraqalpoqlar hayotida yuz bergan unutilmas voqealar tasvirlanishi bilan birga xalqning tarqoqlikdan bir butun xalq bo‘lish g‘oyasi mohirona ochib berilganligi roman syujetini tahlilga tortish orqali ochib berildi.

4. Roman kompozitsiyasi yozuvchi g‘oyasi, ko‘targan muammosi va olib chiqqan mavzusini ochib berishda qo‘l kelgan. Murakkab kompozitsiya, voqealarni joylashtirishda retrospektik usuldan foydalanish umumiy syujet yo‘nalishiga yon tomon syujetlarni, lirik chekinishlarni singdirib yuborishga imkoniyat yaratgan.

5. Adib Buxoro qoraqalpoqlarining hayotini, yashash sharoitlarini tasvirlashga ko‘proq joy ajratgan. Bu to‘g‘ri. Chunki, Qulshibiy boshchiligidagi ko‘ch voqealarini tasvirlash bilan birga o‘sha davrdagi Buxoro hududi, uning xalqining hayoti aks ettirilmasa tarixiy haqiqatdan chetlash bo‘lardi.

6. Roman dilogiya syujeti bahsli, unda syujetga qo‘yiladigan umumiy talab – syujetning boshlanishi, rivojlanishi, kulminatsion cho‘qqiga chiqishi, hal qilinishi, syujetdan tashqari elementlarning bo‘lishi (prolog, epilog, qo‘shimchsa syujetlar) to‘la saqlangan. Demak, bu asar yozuvchining prozadagi birinchi tajribasi bo‘lishiga qaramay u bu janrga tayyorgarlik bilan qo‘l urganidan dalolat beradi.

7. Romanda Qulshibiy obrazini yaratishga alohida ahamiyat beriladi. Bu obraz tarixiy Qulshibiy bilan ko‘p tomonlari bo‘yicha mos kelishi (Qulshibiyning Buxoro qoraqalpoqlarini Chimboy atrofiga ko‘chirib olib kelishdagi xizmati ishonchli tasvirlangan), avval hech bir badiiy asarda yaratilmagan yangi obraz bo‘lishi bilan ham ahamiyatli.

8. Tarixiy Yerejepbiy haqida yozma ma‘lumotlar va xalq og‘zida saqlanib qolgan hangomalar ko‘p. Muallif bu ma‘lumotlardan mohirona foydalangan. Bu obrazni boyitish uchun har xil badiiy to‘qimalarni ham qo‘llagan. Eng asosiysi, bu tarixiy obrazni yaratish bo‘yicha muallifning o‘z konsepsiyasi bor.

9. Adib asosiy qahramonlarning va personajlarning portretlarini yaratgan. Bu bo‘yicha yutuq va kamchiliklarin biz yuqorida ko‘rsatib o‘tdik. Ikki bosh qahramonning ham xarakterini ochib berishga erishgan. Ularni voqea-hodisa o‘rtasida ko‘rsatishi, dialog va monologlarini mohirona berishi muallifning yutug‘i.

10. Romanda boshqa personajlar guruhi ham qatnashadi. Ularning obrazlarining yaratilishini biz yuqorida keng tahlil qildik. Bu obrazlar romanning badiiy asar sifatida butunligini, davr koloritini berishga xizmat qiladi.

11. Peyzajlik tasvirlashlar voqea-hodisaning bo'layotgan joyini, vaqtini ko'rsatib beradi. Shuningdek, romanda peyzaj voqealarni tasvirlash orqali personajning ko'ngil-kayfiyatini ko'rsatib berishini misollarni tahlil qilish yordamida ko'rib o'tdik. Tabiatda yuz berayotgan o'zgarishlar endi bo'lajak voqealarga ishora xizmatini ham bajaradi.

12. Shahar, qishloq manzaralarining tasvirlanishi tarixiy haqiqatni ifodalashga ham xizmat qiladi. Masalan, romanda Chimboy qal'asining tasvirlanishi orqali o'sha davrdagi shahar turmushi bilan tanish bo'lamiz. Bu tarixiy haqiqat bilan badiiy haqiqatning sintezlashuvi ham hisoblanadi.

13. Romanda ot obrazini tasvirlashga alohida ahamiyat berilgan. Romanda otlar tasviri boshqa turkiy adiblarning asarlaridagi otlarning portretlari bilan taqqoslanib o'rganildi. Romandagi ot obrazi qoraqalpoq dostonlaridagi ot obrazini yaratish an'anasining davomi ekanligini ayonlashdi.

14. Bo'rilar obrazini yaratish roman syujetining ajralmas bir qismi ekanligini ko'rib o'tdik. Sababi, necha oylab cheksiz sahroda kezib yurgan ko'chning shu sahroning egalari bo'lgan bo'rilar bilan uchramasligi mumkin emas edi. Shu tomondan olib qaraganda bo'rilar tasvirlash voqea-hodisalarga o'tkirlik berib, qahramonlarning obrazlarini ham to'liqtirib turganligini ko'rib o'tdik.

15. Romanda tabiat bilan jamiyatning ishtirokini tasvirlash bir qator badiiy vazifalarni yechishga imkoniyat yaratgan. Romanning kompozitsion qurilishiga, syujet bilan konflikt yaratishiga, personajlarning obrazlarini yasashga ham ta'sir qilgan. Bunda yozuvchining o'ziga xos tasvirlash usullarining ham bor ekanligi ko'rinib turadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**НАВОЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
ИНСТИТУТ**

**ШАМУРАТОВ МАРАТ ХАЛМУРАТОВИЧ**

**ИСТОРИЧЕСКАЯ ДЕЙСТВИТЕЛЬНОСТЬ И ХУДОЖЕСТВЕННАЯ  
ФАНТАЗИЯ В РОМАНЕ К.КАРИМОВА «АГАБИЙ»**

**10.00.12 – Каракалпакская литература**

**АВТОРЕФЕРАТ диссертации доктора философии (PhD) по ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ  
НАУКАМ**

**Нукус – 2024**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за номером В2023.4.PhD/Fil4301.**

Диссертация выполнена в Навоийском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации на трёх языках (русском, узбекском, английском (резюме)) размещен на веб-странице научного совета ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Оразимбетов Куанышбай Келимбетович,**  
доктор филологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Нуржанов Пердебай Ержанович**  
доктор филологических наук, доцент

**Камалова Дильфуза Энуаровна**  
доктор философии (PhD) по филологическим наукам

**Ведущая организация:**

**Бухарский государственный университет**

Защита диссертации состоится «\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года в \_\_ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 при Каракалпакском государственном университете. (Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч. Абдирова, дом 1. Тел: (99861)223-59-25, факс: (99861)223-59-25; e-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz).)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (зарегистрирована за № \_\_\_\_). Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдиров, дом 1. Тел: (99861) 223-59-25.

Автореферат диссертации разослан «\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года.  
(Протокол реестра рассылки № \_\_\_\_\_ от «\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года).

**П.А. Нажимов**

и.о. председателя Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

**Д.Б. Сейткасымов**

ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор педагогических наук, доцент

**З.У. Бекбергенова**

председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировом литературоведении оценка исторических произведений на основе общечеловеческих критериев становится объектом исследований. Особенно, выявление связи и различия истории и художественной литературы, при глубоком понимании смысла художественной действительности и исторической действительности, направлено на обоснование того факта, что исторический образ - это не сама личность, которая существовала в истории, а продукт художественного вымысла писателя.

В мировой литературе также остается актуальным создание исторических романов и представление их читателям. Особенно у народов, письменная история которых сформирована не полностью, растет интерес и потребность в исторических романах. Такие романы направлены на поощрение духовной потребности людей познавать свою историю через художественную литературу. В результате такой необходимости в литературе многих народов были созданы художественные образы исторических личностей, которые оставили неизгладимый след в истории своих народов и создаются до сих пор. Особенно когда исторические романы создаются с участием исторических личностей в событиях, которые еще не были известны людям этой национальности, уровень художественности таких исторических романов становится еще выше.

В каракалпакском литературоведении сформирована программа изучения и оценки исторических романов. Причина этого заключается в том, что само каракалпакское литературоведение возникло и развивалось вместе с созданием национальной истории каракалпаков. В литературоведении также имеется опыт изучения истории нации вместе с историей литературы и оценки уровня служения литературы человечеству. "Внимание к литературе - это, прежде всего, внимание к нашему народу, внимание к нашему будущему, и мы не имеем права забывать, что нация может жить, как сказал поэт А. Чулпан, если живы литература и культура"<sup>35</sup>.

В каракалпакской литературе исторические романы были созданы такими писателями, как Т.Каипбергенов, К.Султанов, Ш.Сейтов, К.Мамбетов, А.Садиков, К.Каримов, Х.Утемуратова. Ими создана художественная история нашего народа с VI-VII веков по XX век, образы Билке кагана, Култегина, Исмаила султана, Юсупа султана, Ормамбет бия, Маман бия, Айдос бия, Ерназара Алакуза, Кулши бия, Ереджеп бия, Аджинияза, Бердака, Хурлиман. Художественное изложение таких исторических событий и образы исторических личностей создаются в зависимости от поставленных перед собой самим писателем художественных задач, идеи. У каждого писателя своя концепция их создания. Выявление

---

<sup>35</sup> Ўзбекистан Республикасы Президенти Шавкат Мирзиёев «Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари» мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига йўллаган табриги. «Халқ сўзи» газетаси, 2018 йил, 7 - август.

таких концепций, изучение и обобщение уровня их художественности считаются актуальными научными проблемами, стоящими перед современным каракалпакским литературоведением.

